

## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA HIKOYA O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH VA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VAZIFALARI

**Ro‘zimova Charos Marks qizi**

*UrDU Ta‘lim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim) mutaxassisligi 2-kurs magistri*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘limda hikoya o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish va nutq madaniyatini shakllantirish vazifalari haqida fikr yuritiladi. Unda nutq o‘stirishning metodik sharti hamda vazifalari ko‘rsatib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Boshlang‘ich ta‘lim, nutq, nutq o‘stirish, nutq madaniyati, badiiy adabiyot, hikoya, nutq o‘stirish aspekti.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются задачи развития речи учащихся и формирования речевой культуры на занятиях по чтению рассказов в начальных классах. В ней показаны методические условия и задачи развития речи.*

**Ключевые слова:** *Начальное образование, речь, развитие речи, культура речи, художественная литература, рассказ, аспект развития речи.*

**Annotation:** *This article discusses the tasks of developing students' speech and forming speech culture in story reading classes in primary education. Methodical conditions and tasks of speech development are shown in it.*

**Keywords:** *Elementary education, speech, speech development, speech culture, fiction, story, aspect of speech development.*

Bugungi kunda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarni amalga oshirishning istiqbolli yo‘li ta‘lim tizimini innovatsion yondashuv asosida tinmay takomillashtirish hamda shu orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Boshlang‘ich ta‘lim uzluksiz ta‘limning asosiy bo‘g‘ini sifatida inson kamolotida muhim o‘rin egallaydi.

Boshlang‘ich ta‘limning ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida, shuningdek, sinfda o‘qish darslarida quyidagi masalalarga e‘tibor beriladi:

1. O‘quvchilarning o‘qish malakalarini o‘stirish. 2. O‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish. 3. O‘quvchilarda aqliy yetuklik, ma‘naviy go‘zallik, jismoniy kamolotni tarbiyalash. 4. O‘quvchilarning odobli, axloqli, estetik didli bo‘lishga yordam berish. 5. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirish. 6. Ona tili va adabiyot bilan tanishtirish hamda ularga nisbatan muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish.

Bulardan tashqari bu darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilar nutqini rivojlantirish va ularda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish ham hisoblanadi. Ma‘lumki, yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Nutq kishi faoliyatining turi, til vositalari (soʻz, soʻz birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq oʻzaro aloqa va xabar, oʻz fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga taʼsir etish vazifasini bajaradi.

Boshlangʻich taʼlimda bolalarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan oʻz tajribasida foydalanish natijasida bolalarda taʼlim metodikasi asoslanadigan ongʻli ravishda “tilni sezish” shakllanadi.

Nutq oʻstirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, yaʼni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, oʻrgangan til vositalaridan foydalanib, oʻz fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida oʻzlashtiradi. Buning oʻzi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki oʻzlashtiradi. Metodikada nutqni egallashning qator aspektlari mavjud:

**1. Adabiy til meʼyorlarini oʻzlashtirish.** Maktab bolalarni adabiy tilni sodda soʻzlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga oʻrgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, soʻzlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

**2. Jamiyatimizning har bir aʼzosi uchun zarur boʻlgan muhim nutq malakalarini, yaʼni oʻqish va yozish malakalarini oʻzlashtirish.** Bu bilan bola yozma nutqning xususiyatlarini, uning ogʻzaki-soʻzlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

**3. Oʻquvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish.** Til kishilar oʻrtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda oʻquvchilarning nutq madaniyatiga alohida eʼtibor beriladi.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun oʻqituvchi oʻquvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa oʻquvchilar nutqini oʻstirish ustida ishlash va nutq madaniyatini shakllantirish tushunchalariga nimalar kirishini bilib olish muhimdir. Oʻquvchilar nutqini oʻstirish oʻz metodik vositalariga ega, oʻzining mashq turlari bor. Nutq oʻstirishda izchillik toʻrt shartni, yaʼni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga boʻysundirish koʻnikmasini amalga oshirish bilan taʼminlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bogʻlanadi va keyingisiga oʻquvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga boʻysungan holda yana qandaydir yangilik qoʻshadi.

Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar nutqini oʻstirishga ona tili oʻqitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Bu vazifa boshlangʻich sinflarda badiiy adabiyot namunalaridan boʻlmish hikoya oʻqish darslarining ham vazifasidir. Badiiy adabiyot, xususan, hikoyalar bolalarni axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalab, ularda madaniy xulq, insonga xos boʻlgan his-tuygʻu, narsa va voqealarga eʼtiborli boʻlish, asar qahramonlarining oilyjanob fazilatlarini egallash kabi zarur malakalarni hosil etadi. Hikoya oʻqish darslarida undan olingan ozuqa bolaning kundalik hayotiga: oʻqishga, oʻyinga, mehnatiga, atrofdagilar bilan munosabatiga singdirila borishi lozim. Shuningdek oʻqiliyotgan asardan faqat bolalarda oʻqish koʻnikmasini takomillashtirish vositasi sifatidagina emas, balki ularning bilimlarini shakllantirish hamda tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish taʼlimda juda muhimdir.

Hikoya - bola nutqini o‘stirish manbalaridan biri. Uning serjilo, bola e‘tiborini tortuvchi badiiy tasviriy vositalari uni nafosat olamiga yetaklaydi, tabiat manzarasidan tortib, kichik bir epizodning shakli bolada qiziqish uyg‘otibgina qolmay, balki uning butun borlig‘ini o‘ziga rom etadi.

Hikoya tili bola nutqini o‘stirishda bosh omillardan sanaladi. O‘qituvchi hikoyaning tili ustida ham mustaqil ish olib borishi lozim. Bu bolalar nutqi va lug‘atini boyitishda muhimdir. Bolalarda badiiy adabiyotga mehr-muhabbat hissini uyg‘otish o‘z navbatida, ularni badiiy adabiyotlarni mustaqil ravishda o‘qishga undaydi. Chunki darsda vaqt va imkoniyat nuqtayi nazaridan o‘qituvchi barcha ishlarni to‘la-to‘kis bajarishga imkon topmaydi. Shuning uchun bolaning savodi chiqishi bilan uni ko‘proq mustaqil o‘qishga, o‘qiganlarini esa uqishga o‘rgatish kerak.

Ma‘lumki, og‘zaki nutqning ichki mazmuni uning eshitilishida ifodalanadi. Bolaning o‘qishda yoki namuna uchun o‘qituvchining o‘qib berishida shunday bir his-tuyg‘u hosil etuvchi ohang, mayinlik, ifodalilik bo‘lsinki, bola eshitishdan charchamasin, ularda nutq madaniyatini egallashga ishtiyoq tug‘ilsin. Bunga quyidagilar orqali erishiladi:

- nutq dinamikasini belgilovchi urg‘uning o‘rnini to‘g‘ri belgilash;
- nutq ohangini to‘ldiruvchi turli mimika, imo-ishoralarni o‘rinli qo‘llash;
- nutq sur‘ati va ritmini belgilovchi pauza va urg‘ularni to‘g‘ri qo‘llash;
- ko‘rgazma hamda zamonaviy ta‘lim vositalardan mohirona foydalanish;
- bolalarda asar qahramonlarining ishlariga ishonch, mehr, sadoqat kabi hislarni paydo qilish bilan erishiladi.

Nutqning his-tuyg‘u bilan sug‘orilishi uning jozibador va ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlaydi. Bu esa nutq madaniyatini egallash shartlaridan biri hisoblanadi.

Hikoya o‘qish darslarida o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlarning hammasi o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stirish bilan bog‘liq holda uyushtiriladi. Hikoya o‘qish darsidagi ishlarning miqyosi keng bo‘lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, hikoya yuzasidan suhbat va boshqalar bilan bog‘lanadi. Bu davrda o‘quvchilar nutq madaniyatini shakllantirishning vazifalari: 1) bolalar nutqidagi kamchiliklarni to‘g‘rilash; 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog‘liq holda lug‘atini boyitish; 3) o‘quvchilar nutqidagi ayrim so‘zlarning ma‘nosiga aniqlik kiritish; 4) bir qncha gaplardan iborat kichik “hikoyacha” (bog‘lanishli nutq) ni og‘zaki turli tuzish ko‘nikmasini o‘stirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda bolalarning fikrlashi, og‘zaki nutq tempi tez bo‘lib, yozma nutqi o‘lchovli bo‘ladi. Og‘zaki nutqda bolaga gap uchun so‘zlar tanlash va ularni joy-joyiga qo‘ya bilish bilangina ravon nutqqa ega bo‘lish mumkin emasligini, fikrni nimadan boshlab, qanday davom ettirish va nima bilan tugatish, ya‘ni izchillikka rioya qilishni, so‘zlagan vaqtda jumalarning o‘zaro uzviy bog‘liqligiga, munosibligiga e‘tibor

berishni o'rgatish zarur. Shu tarzda hikoya o'qish darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatiga e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi// Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
2. Qo'ng'urov R., Begmatov E. va b. Nutq madaniyati asoslari.- Toshkent, "O'zbekiston", 1992.
3. Qosimova K., Matchonov S. , G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: "Nosir", 2009.